

“MAKTABLARDA TEXNALOGIYA FANINING OQITISH METODIKASI”

Farg’ona viloyati Buvayda tumani

49-umumiy o’rta ta’lim maktabi Texnologiya fani o’qituvchisi

Mamajonova Nigora Valijonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Texnologiya ta’limi jarayoni jihatlarini, texnologiya fani metodikasi, uni o’qitish, orgatish jarayonlari, o’quvchilarning kasbiy tayyorgarlik uchun texnologiya fanining roli, umumiy o’rta ta’lim muassasalarida texnologiya o’quv fanini o’qitishning asosiy maqsadi va vazifalari haqida qisqacha so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Umumta’lim, Harakatlar strategiyasi, Mehnat ta’limi, Texnologiya, jamiyat, davlat, oila, metod, metodika, kasbiy tayyorgarlik, sanoat, xalq xo’jaligi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o’rta ta’lim to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi hamda 2017 yil 6-apreldagi “Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi qarorlari o’qitish tizimini yangi bosqichga ko’tarishga imkon yaratadi. Umumta’lim tizimida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi”ning ijtimoiy soha rivojiga doir tegishli yo’nalishida ta’lim bo’yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Shu o’rinda o’quvchilarni kasb-hunarni to’g’ri tanlashga yo’naltirish maqsadida “Mehnat ta’limi” fani ham “Texnologiya” fani deb o’zgartirildi va bugungi kun talabidan kelib chiqib, ko’p tarmoqli yo’nalishlarga asoslangan holda qayta ishlandi. “Mehnat ta’limi” fanining “Texnologiya” fani deb o’zgartirilishi ushbu fan sohasini yanada boyitish, uni texnologiyalashtirish, ya’ni fanga innovatsion texnologiyalarni olib kirish, innovatsion faoliyatni yaratish, mahsuldorlikni oshirish kabi jadal suratlarni ro’yobga chiqarish, shu bilan birga fanni takomillashgangan qirralarini ochish kabi bir qancha vazifalardan iboratdir. Kadrlar tayyorlash, ta’lim tizimini o’z rivojida shaxsning madaniyatini shakllantirish, jamiyatdagi hayotga moslashish, kasbiy va ta’lim dasturlarini bilib tanlash hamda keyin o’zlashtirish, jamiyat, davlat, oila oldidagi

o'z mas'uliyatini anglab yetuvchi to'laqonli shaxsni tarbiyalash uchun huquqiy, tashkiliy, ruhiy pedagogik shart-sharoitlarni ta'min etishga qaratilgandir. Bu borada umumta'lim maktablari uchun tayyorlanadigan pedagoglarni va shu jumladan texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashni tubdan o'zgartirish zaruratini keltirib chiqardi.

“Texnologiya ta'limi metodikasi” pedagogika faninig bir tarmogi sifatida o'z ob'yektivlari, vazifalari va tadqiqot metodlariga ega. Texnologiya ta'limi jarayoni, shu jarayonning barcha jihatlarini:

- o'quv materialining mazmuni;
- o'qitish metodlari;
- o'quvchilarning bilish faoliyati;
- o'qitish natijalari;
- pedagogik texnologiyalardan foydalanish va boshqalar o'rganish ob'yektivi hisoblanadi.

Texnologiya metodikasi ham o'z navbatida ayrim qismlardan iboratdir. Hozirgi davrda boshlang'ish ta'lim metodikasi 1-4 sinf, 5-9 sinflarda o'quv ustoxonasida qo'llaniladigan metodika. Qishloq xo'jalik yeridagi tajriba-amaliy hamda mayishiy xizmat ko'rsatish metodikalari mavjud. Maktab o'quv ustaxonalarida texnologiya ta'limi metodikasi o'z oldiga o'quvchilarni texnika asoslari bilan tanishtirish, o'rgatish orqali ularda bilim va malakalarni texnologik tizim asosida oshirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Bizga ma'lumki, bilim va ko'nikma bir biri bilan chambarchas bog'liqdir. Maktabni bitirib chiquvchi yosh avlod texnik bilimlar malaka va ko'nikmalar bilan qurollangan bo'lishi kerak. O'quvchilarda mehnat qilishga muhabbat, mehnat qilish birinchi ixtiyoriy ekanligini tarbiyalash texnologiya ta'limi darslarida amalga oshiriladi.

Kasbiy tayyorgarlikni ajiralmas qismi o'quv ustoxonasida olib boriladigan texnologiya ta'lim darslaridir. Texnologiya ta'limi darslaridan o'quvchilar tikuvchilik, gazlamalarga ishlov berish hamda tikuv mashinalarida ishlov berish buyicha ma'lumotga ega bo'ladilar. Ishlov beruvchi asboblar bilan tanishadilar va shu asboblar bilan ish operatsiyalarini bajaradilar. Texnika taraqqiyoti elektrlashtirish, mexanizatsiyalash va ish jarayonini avtomatlashtirish yuzasidan bilimga ega bo'ladilar. Sanoatning rivojlanishi va xalq xo'jaligining barcha sohalaridagi texnika taraqqiyoti malakali ishchi kadrlar

tayyorlash hamda ularning professional mahoratlarining oshirishiga borgan sari yuqori talablar qo'yilmoqda. O'rganilayotgan kasblarni chuqur va puxta egallab olishlari ishlab chiqarish malakasini yanada mukammallashtirilishi va mehnat unumdorligini oshirishlari uchun ular hozirgi zamon texnikasi va texnologiyasi asoslarini bilishlari shart.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi: - o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

-materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik ob'yekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rganish;

-texnik ob'yekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish;

-texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo'llay olish;

-texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;

-texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;

-buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish;

-ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'limning Texnologiya fani o'quv dasturida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtiruvchi bir qancha fanga oid rivojlantiruvchi tayanch va umumiy kompetensiyalar kiritilgan bo'lib, texnologiya ta'limining asosan amaliy mashg'ulot jarayonlarining samaradorligini oshirish maqsadida milliy va umummadaniy kompetensiyalar, Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan

xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi, va o'z-o'zini rivojlantiruvchi kompetensiyalardan foydalangan holda o'quvchilarning savodxonlik darajalarini oshirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ta'lim to'g'risidagi qarorlari. 1-qism. Toshkent., 1998.*
2. *Ўзбекистон Республикаси “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” // Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т.: «Шарқ», 1998. – Б. 31-61.*
3. *Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалликда барпо этамиз. Тошкент - «Ўзбекистон» - 2016.*
4. *O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2017 yil 17 oktyabrdagi 330-sonli “Davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini va ularning bilimlari sifatini nazorat qilish bo'yicha baholovchi mezonlarini tajribasinovdan o'tkazish t'.,g'risida” bo'yrug'i va uning asosidagi reyting tizimi Muvaqqat Nizomi.*
5. *Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Таълим тараққиёти. ЎзРХТВ ахборотномаси, 4-махсус сон, меҳнат таълими, – Тошкент: Шарқ нашриёти, 1999.*
6. *Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma - T.: «Noshir», 2009.*
7. *Azizxo.,jayeveva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003, TDPU,*